Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim jarayonini sifatli tashkil qilish va talabalarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirishda yangi pedagogik yondashuvlarni talab etmoqda. Xususan, axborot texnologiyalari sohasiga oid fanlarni, jumladan, kompyuter arxitekturasini o'qitishda an'anaviy usullar ko'pincha murakkab va abstrakt tushunchalarni yetarli darajada vizuallashtirib bera olmasligi bilan ajralib turadi. Bu esa o'quvchilarda fazoviy tasavvur, tizimli fikrlash va konseptual anglash jarayonining sust rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Kompyuter arxitekturasini fanining mazmuni protsessor tuzilmasi, xotira iyerarxiyasi, buyruqlarni bajarish mexanizmlari kabi murakkab texnik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tushunchalarni samarali o'zlashtirish uchun nafaqat nazariy bilimlar, balki kuchli vizual va interaktiv ta'lim muhiti ham zarur hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari o'quv jarayonida murakkab obyekt va jarayonlarni real muhit bilan uyg'unlashtirgan holda ko'rsatish imkonini beruvchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ta'limda AR texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, o'quv materialini ko'rgazmali va tushunarli shaklda taqdim etish, shuningdek, mustaqil va faol o'rganishni rag'batlantirish imkonini yaratadi. Ayniqsa, kompyuter arxitekturasini kabi texnik fanlarni o'qitishda AR asosidagi yondashuvlar o'quvchilarning murakkab strukturalarni uch o'lchamli modellar orqali idrok etishiga, komponentlar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, AR texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi imkoniyatlari keng yoritilgan bo'lsa-da, ularni kompyuter arxitekturasini o'qitishga tizimli va metodik jihatdan asoslangan holda joriy etish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, AR asosida o'qitishni takomillashtirishning pedagogik asoslari, didaktik shart-sharoitlari va metodik tamoyillarini aniqlash dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur maqolada raqamli va AR texnologiyalariga oid ilmiy maqolalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar hamda dissertatsion tadqiqotlar tahlili asosida kompyuter arxitekturasini o'qitishda AR texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari yoritiladi. Tadqiqot natijalari informatikani o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini samarali integratsiya qilish hamda o'quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalasi so'nggi yillarda pedagogika va ta'lim texnologiyalari sohasida ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Xususan, kengaytirilgan reallik (Augmented Reality – AR) texnologiyasining didaktik imkoniyatlari, uning o'quvchilarning bilish jarayoniga hamda akademik natijalarga ta'siri ko'plab xorijiy tadqiqotlarda empirik asosda o'rganilgan.

C. Walkington va hammualliflarining tadqiqotida AR muhitida turli hamkorlik formatlarining matematik masalalarni yechish jarayoniga ta'siri tahlil qilingan ^[1]. Mualliflar AR asosidagi hamkorlik o'quvchilarning muammoli vaziyatni chuqurroq tushunishiga va strategik fikrlashini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Ushbu tadqiqot ARning kognitiv va ijtimoiy-konstruktiv jihatlarini ochib beradi, biroq unda texnik fanlar, xususan, kompyuter arxitekturasini kabi murakkab tizimli fanlarni o'qitish metodikasi masalasi ko'rib chiqilmagan.

H. Pujiastuti va R. Haryadi tomonidan olib borilgan tadqiqotda AR texnologiyasining o'rta maktab o'quvchilarning geometrik tafakkurini rivojlantirishdagi samaradorligi empirik jihatdan asoslangan ^[2]. Tadqiqot natijalari AR vizualizatsiya orqali abstrakt tushunchalarni anglash jarayonini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatadi. Biroq mazkur ish matematika faniga yo'naltirilgan bo'lib, kompyuter tizimlari arxitekturasining dinamik va ko'p bosqichli jarayonlarini modellashtirish masalasi qamrab olinmagan.

Y. O'Connor va C. Mahony oliy ta'limda AR texnologiyasining talabalarning akademik o'z-o'ziga ishonchi (self-efficacy)ga ta'sirini o'rgangan ^[3]. Tadqiqot natijalari AR muhitida o'rganish jarayoni talabalarning o'z bilimiga bo'lgan ishonchini oshirishini ko'rsatadi. Ushbu natijalar ARning motivatsion va psixologik omillar bilan bog'liqligini tasdiqlaydi, ammo texnik fanlarni o'qitishda metodik model ishlab chiqish masalasi ochiq qolgan.

R. Rusli va hammualliflarining ishida AR texnologiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilariga inson tanasi tuzilishini o'rgatishda qo'llanilgan ^[4]. Tadqiqot ARning ko'rgazmalilik va interaktivlik xususiyatlari boshlang'ich ta'limda samarali ekanini ko'rsatadi. Biroq bu ish yosh xususiyatlari va biologik mazmundagi fan doirasida olib borilgan bo'lib, oliy ta'limdagi murakkab texnik modellarni o'qitish muammosi bilan bevosita bog'liq emas.

Hsin-Kai Wu va hammualliflari tomonidan Computers & Education jurnalida chop etilgan (2013) maqolada AR texnologiyasining ta'limdagi holati, imkoniyatlari va muammolari tizimli tahlil qilingan ^[5]. Mualliflar ARning asosiy didaktik ustunligi sifatida abstrakt ilmiy tushunchalarni vizuallashtirish va fazoviy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatini ko'rsatadilar. Tadqiqotda AR konstruktivistik yondashuv bilan uyg'unlashib, o'quvchini faol bilish subyektiga aylantirishi ta'kidlangan. Shu bilan birga, maqolada metodik asoslarning yetarli darajada ishlab chiqilmagani va uzoq muddatli empirik tadqiqotlar kamligi asosiy muammo sifatida qayd etilgan. Wu va boshqa hammualliflar ARni samarali joriy etish uchun pedagogik dizayn, o'qituvchi tayyorgarligi va texnik infratuzilma muhim omillar ekanini asoslaydilar.

Andreas Dunser va Raphael Grasset tomonidan taqdim etilgan ishda AR tadqiqotlarida qo'llaniladigan baholash metodlari tahlil qilingan ^[6]. Mualliflar AR tizimlarini baholashda texnik aniqlik, foydalanuvchi tajribasi va ta'lim samaradorligi kabi uch asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatadilar. Tadqiqotda AR bo'yicha ilmiy ishlarda



yagona baholash standarti yo'qligi va ko'plab tadqiqotlar metodologik jihatdan cheklanganligi ta'kidlanadi. Dunser va Grasset AR ilovalarini baholashda nazorat guruhi, eksperimental dizayn va kognitiv yuklama ko'rsatkichlarini hisobga olish zarurligini asoslaydilar. Ushbu tadqiqotlar birgalikda ARning pedagogik salohiyati va uni ilmiy asosda baholash zaruriyatini ko'rsatadi hamda kompyuter arxitekturasini o'qitishda AR asosidagi metodik model ishlab chiqish uchun nazariy-metodologik poydevor yaratadi.

Prasetya va Agariadne Dwinggo Samala tomonidan olib borilgan meta-tahlil AR asosidagi o'quv tajribalarining motivatsion dizayn modeli asosida ta'lim samaradorligiga ta'sirini tizimli ravishda o'rganishga qaratilgan [7]. Tadqiqotda kengaytirilgan reallik texnologiyasi John Keller tomonidan ishlab chiqilgan ARCS (Attention, Relevance, Confidence, Satisfaction) motivatsion modeli asosida tahlil qilingan. Meta-tahlil natijalari AR texnologiyasi o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish (Attention) va o'quv jarayoniga faol ishtirokini oshirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatgan. Shuningdek, AR asosidagi o'quv muhiti o'quv materialining real hayot bilan bog'liqligini kuchaytirib, o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari AR texnologiyasi o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni (Confidence) oshirish orqali mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishini tasdiqlagan. AR muhitida o'rganish jarayoni o'quvchilarda o'rganish natijalaridan qoniqish hissini (Satisfaction) shakllantirib, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan. Meta-tahlil turli fanlar va ta'lim darajalarida AR texnologiyasining motivatsion va kognitiv natijalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishini statistik jihatdan asoslagan. Mualliflar AR texnologiyasi ayniqsa abstrakt va murakkab tushunchalarni o'rganishda yuqori motivatsion va didaktik samaradorlikka ega ekanini ta'kidlaganlar. Shu bilan birga, AR asosidagi ta'limni samarali joriy etish uchun pedagogik dizayn, metodik yondashuv va texnologik infratuzilma muhim omillar ekanligi qayd etilgan.

Ushbu tadqiqot natijalari AR texnologiyasini kompyuter arxitekturasini kabi murakkab texnik fanlarni o'qitishda qo'llash o'quvchilarning motivatsiyasi, tushunish darajasi va o'quv samaradorligini oshirishda muhim pedagogik vosita bo'lishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O'rta Osiyodagi ilmiy izlanishlarda esa A. Striuk, M. Rassovytska, S. Shokaliuk hammualliflari tomonidan tadqiqotda muhandislik yo'nalishidagi talabalarni tayyorlashda AR texnologiyasidan foydalanishning pedagogik samaradorligi o'rganilgan [8]. Tadqiqotchilar Blippar AR platformasi asosida o'quv materiallari ishlab chiqqan va uni amaliy mashg'ulotlarda qo'llagan. Natijalar AR texnologiyasi talabalarining grafik kompetensiyasi va texnik tafakkurini rivojlantirishini ko'rsatgan. AR yordamida murakkab texnik tizimlarning vizual modeli yaratilgan va bu abstrakt tushunchalarni osonroq tushunishga yordam bergan. Tadqiqot AR texnologiyasi professional texnik ta'limni modernizatsiya qilishda muhim vosita ekanligini asoslab beradi.

"Digital Transformation in Higher Education: Toward a National Model of Digital University in Kazakhstan Through Global and Local Comparison" nomli maqolada Qozog'iston oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari, jumladan, zamonaviy raqamli va immersiv texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilingan [9]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar, xususan, augmented reality (AR) kabi interaktiv vositalar ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Mualliflar AR asosidagi interaktiv o'quv muhitlari talabalarining mustaqil o'rganish faoliyatini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va murakkab texnik tushunchalarni vizual tarzda tushunishga yordam berishini ta'kidlaydilar. Tadqiqotda STEM yo'nalishidagi fanlarni, ayniqsa texnik va muhandislik fanlarini o'qitishda AR texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim innovatsion pedagogik vosita sifatida baholangan. Ushbu maqola kompyuter arxitekturasini kabi murakkab apparat tizimlariga oid fanlarni o'qitishda AR texnologiyalarini joriy etishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Radianti, J., Majchrzak, T.A., Fromm, J., Wohlgenannt, I. tomonidan yozilgan "Interactive Augmented Reality Learning Environments: A Systematic Literature Review" maqolasida oliy ta'lim tizimida AR asosidagi interaktiv o'qitish muhitlarining samaradorligi tahlil qilingan [10]. Tadqiqot natijalari AR texnologiyasi murakkab texnik tizimlarni o'rganishda samarali vosita ekanligini ko'rsatgan.

AR asosida yaratilgan interaktiv o'quv muhitlari talabalar uchun realistik va vizual tajriba yaratgan. AR texnologiyasi orqali kompyuter komponentlari va apparat tuzilishini 3D formatda o'rganish imkoniyati yaratilgan. Tadqiqot AR asosidagi o'qitish talabalarining tushunish darajasi va bilimlarni eslab qolish ko'rsatkichlarini oshirishini aniqlagan. AR asosidagi tizimlar talabalarining mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam bergan.

"Augmented and Virtual Reality for Physics: Experience of Kazakhstan Secondary Educational Institutions" nomli tadqiqotda kengaytirilgan reallik (AR) va virtual reallik (VR) texnologiyalarining Qozog'iston ta'lim muassasalarida texnik va muhandislik fanlarini o'qitishda qo'llanish imkoniyatlari tahlil qilingan [11]. Tadqiqotchilar tomonidan AR asosida virtual laboratoriya modeli ishlab chiqilgan bo'lib, u orqali talabalar murakkab fizik va texnik jarayonlarni uch o'lchamli vizualizatsiya orqali interaktiv tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Mahalliy tadqiqotlarda ham raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish, masofaviy ta'lim platformalari, multi-mediya vositalari va elektron o'quv resurslarining samaradorligi keng o'rganilgan. M.R. Fayziyevaning tadqiqotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga faqat axborot yetkazish vositasi sifatida emas, balki talabning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantiruvchi hamda murakkab tizimlarni (masalan, kompyuter arxitekturasini) anglashni osonlashtiruvchi strategik vosita sifatida kiritilishi lozim ^[12].

"Augmented reality (AR) va virtual reality (VR) loyihalarini yaratishda Assemblr online platformasidan foydalanish" maqolasida ko'rsatilishicha, Assemblr platformasi ta'lim oluvchilar uchun murakkab texnik tizimlarni 3D formatda tadqiq qilish imkonini beruvchi interaktiv muhit yaratadi ^[13].

Informatikani o'qitish metodikasiga oid ishlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning didaktik asoslari, interaktiv metodlar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari yoritilgan. Biroq AR texnologiyasini aynan kompyuter arxitekturasini o'qitish kontekstida tizimli pedagogik asoslash, metodik model ishlab chiqish va didaktik shart-sharoitlarini aniqlash masalalari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

Shunday qilib, mavjud xorijiy tadqiqotlar asosan AR texnologiyasining:

- kognitiv rivojlanishga ta'siri;
- akademik natijalarga ta'siri;
- motivatsion va psixologik omillarga ta'siri;
- tabiiy va matematik fanlardagi qo'llanilishi

kabi jihatlarni empirik asosda o'rganib kelmoqda.

Biroq mazkur maqolada ko'tarilayotgan masalaning o'ziga xosligi shundaki, unda AR texnologiyasining kompyuter arxitekturasini o'qitish jarayoniga integratsiyasi pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqiladi hamda:

1. Kompyuter arxitekturasining murakkab va ko'p darajali tuzilmasini vizuallashtirish imkoniyatlari;
2. Kognitiv yuklama nazariyasi asosida AR muhitini optimallashtirish;
3. Informatikani o'qitish metodikasi bilan AR texnologiyasining integratsiyalashgan modeli;
4. Oliy ta'lim sharoitida metodik shart-sharoitlar va tamoyillar

ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Demak, tadqiqotning yangiligi AR texnologiyasini umumiy didaktik vosita sifatida emas, balki kompyuter arxitekturasini o'qitishga yo'naltirilgan maxsus metodik model doirasida tahlil qilish va uning pedagogik asoslarini tizimlashtirishda namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kompyuter arxitekturasini o'qitishda kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash hamda o'qitish samaradorligini baholash maqsadida bir nechta ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar kompleks ravishda qo'llanildi. Avvalo, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar ishlari tahlil qilinib, ta'lim jarayonida AR texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari o'rganildi. Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, darsliklar hamda xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan tadqiqot natijalari o'rganildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil (comparative analysis) usulidan ham foydalanildi. Ushbu metod yordamida an'anaviy o'qitish metodlari bilan AR texnologiyasi asosida tashkil etilgan o'qitish jarayonlari o'zaro taqqoslandi. Natijada AR texnologiyalarining o'quv jarayoniga ta'siri, xususan, talabalarning bilim darajasi, mavzuni tushunish darajasi va o'quv motivatsiyasiga ta'sirini aniqlashga harakat qilindi. Shuningdek, pedagogik kuzatuv, tahlil-sintez, umumlashtirish hamda tizimli yondashuv metodlari qo'llanildi. Ushbu metodlar yordamida kompyuter arxitekturasini fanining murakkab tushunchalarini vizual tarzda tushuntirishda AR texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalarini asoslash maqsadida statistik tahlil usullaridan ham foydalanildi. Olingan ma'lumotlar jadval va diagrammalar ko'rinishida tizimlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi hamda o'qitish samaradorligiga ta'siri tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimida yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, kompyuter arxitekturasini kabi murakkab texnik fanlarni o'qitishda vizual va interaktiv texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kompyuter arxitekturasini fanini an'anaviy metodlar asosida o'qitishda talabalar uchun protsessorning ishlash jarayoni, xotira tizimi, ma'lumotlar oqimi kabi tushunchalarni tasavvur qilish qiyinchilik tug'diradi. Buning asosiy sababi ushbu jarayonlarning abstrakt va murakkab tuzilishga ega ekanligidir.

AR texnologiyasi ushbu muammoni bartaraf etishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. AR texnologiyasi yordamida kompyuter komponentlari, protsessor arxitekturasini hamda ma'lumotlar almashinuvi jarayonlari uch o'lchamli (3D) ko'rinishda vizual tarzda namoyish etilishi mumkin. Bu esa o'quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish hamda mavzuni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, AR texnologiyasidan foydalanilgan o'quv jarayonida talabalar mavzuni tezroq o'zlashtirishi va o'quv jarayoniga faolroq jalb qilinishi kuzatiladi. AR asosidagi interaktiv modellar talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan bog'lash imkoniyatini yaratadi.

Quyidagi jadvalda an'anaviy o'qitish va AR asosida o'qitish metodlarining ayrim ko'rsatkichlari taqqoslanadi.

Ko'rsatkich	An'anaviy o'qitish	AR asosida o'qitish
Vizual tushunish darajasi	O'rtacha	Yuqori
Talabalar faolligi	Past	Yuqori
Murakkab tushunchalarni o'zlashtirish	Qiyin	Oson
O'quv motivatsiyasi	O'rtacha	Yuqori

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, AR texnologiyasidan foydalanish kompyuter arxitekturasini fanini o'qitishda o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida kompyuter arxitekturasini o'qitishda AR texnologiyalaridan foydalanish muhim pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlandi. AR texnologiyasi yordamida murakkab texnik jarayonlarni vizual va interaktiv tarzda taqdim etish mumkin bo'lib, bu o'quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

Tahlil natijalari AR texnologiyasining ta'lim jarayonida quyidagi afzalliklarini ko'rsatdi:

- murakkab tizimlarni vizual tarzda tushuntirish imkoniyati;
- o'quvchilarning faolligi va motivatsiyasini oshirish;
- nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan bog'lash;
- o'quv materiallarini interaktiv shaklda taqdim etish.

Shu bilan birga, ta'lim tizimida AR texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun bir qator muammolar mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, AR asosidagi o'quv resurslarining kamligi hamda pedagoglarning ushbu texnologiyalar bo'yicha metodik tayyorgarligining yetarli emasligi kuzatiladi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Kompyuter arxitekturasini fanini o'qitish uchun AR asosidagi interaktiv o'quv modullarini ishlab chiqish.
2. Oliy ta'lim muassasalarida AR texnologiyalarini qo'llash bo'yicha metodik qo'llanmalar yaratish.
3. O'qituvchilar uchun AR texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
4. Texnik fanlarni o'qitishda AR texnologiyalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish.

Natijada AR texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish kompyuter arxitekturasini fanini o'qitish samaradorligini oshirish hamda zamonaviy raqamli ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Walkington, j. Washington-henderson, j. Hunnicutt, and m. J. Nathan, 'the impact of different collaboration formats on mathematical problem-solving in augmented reality', comput. Educ., vol. 242, p. 105491, mar. 2026, doi: 10.1016/j.compedu.2025.105491.
2. Pujiastuti and r. Haryadi, 'the effectiveness of using augmented reality on the geometry thinking ability of junior high school students', procedia comput. Sci., vol. 234, pp. 1738–1745, 2024, doi: 10.1016/j.procs.2024.03.180.
3. O'connor and c. Mahony, 'exploring the impact of augmented reality on student academic self-efficacy in higher education', comput. Hum. Behav., vol. 149, p. 107963, dec. 2023, doi: 10.1016/j.chb.2023.107963.



4. Rusli, d. A. Nalanda, a. D. V. Tarmidi, k. M. Suryaningrum, and r. Yunanda, 'augmented reality for studying hands on the human body for elementary school students', *procedia comput. Sci.*, vol. 216, pp. 237–244, 2023, doi: 10.1016/j.procs.2022.12.132.
5. Wu, s. W.-y. Lee, h.-y. Chang, and j.-c. Liang, 'current status, opportunities and challenges of augmented reality in education', *comput. Educ.*, vol. 62, pp. 41–49, mar. 2013, doi: 10.1016/j.compedu.2012.10.024.
6. Dünser, r. Grasset, and m. Billingham, 'a survey of evaluation techniques used in augmented reality studies', in *acm siggraph asia 2008 courses on - siggraph asia '08*, singapore: acm press, 2008, pp. 1–27. Doi: 10.1145/1508044.1508049.
7. Prasetya et al., 'the impact of augmented reality learning experiences based on the motivational design model: a meta-analysis', *soc. Sci. Humanit. Open*, vol. 10, p. 100926, 2024, doi: 10.1016/j.ssaho.2024.100926.
8. Striuk, m. Rassovytska, and s. Shokaliuk, 'using blippar augmented reality browser in the practical training of mechanical engineers', *sun site central europe*, may 2018. Doi: 10.31812/0564/2252.
9. Zhukabayeva, d. Baumuratova, i. Zholshiyeva, a. Karabay, and k. Abdrakhmanov, 'digital transformation in higher education: toward a national model of digital university in kazakhstan through global and local comparison', *sustainability*, vol. 17, no. 24, p. 11132, dec. 2025, doi: 10.3390/su172411132.
10. Radianti, t. A. Majchrzak, j. Fromm, and i. Wohlgenannt, 'a systematic review of immersive virtual reality applications for higher education: design elements, lessons learned, and research agenda', *comput. Educ.*, vol. 147, p. 103778, apr. 2020, doi: 10.1016/j.compedu.2019.103778.
11. Daineko, m. Ipalakova, d. Tsoy, z. Bolatov, z. Baurzhan, and y. Yelgondy, 'augmented and virtual reality for physics: experience of kazakhstan secondary educational institutions', *comput. Appl. Eng. Educ.*, vol. 28, no. 5, pp. 1220–1231, sep. 2020, doi: 10.1002/cae.22297.
12. m.fayziyeva, 'the importance of digital technologies in the transformation of education', nov. 2022, doi: 10.5281/zenodo.7357707.
13. dilnozaxon saidkarimxonova, 'augmented reality(ar) va virtual reality(vr) loyihalarini yaratishda assemblr online platformasidan foydalanish', oct. 2025, doi: 10.5281/zenodo.17314690.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.